

O‘ZBEK VA ITALYAN TILLARIDA MILLIY XARAKTER
MULOQOTNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Naimova Parvina

SAMDCHTI

Muloqot bu bir necha kishi yoki ikki kishi orasidagi fikr almashinishi yoki ma‘lumot yoki fikr tarqatish yoki qabul qilishdir. Milliy xarakterning esa o‘rni muloqotda keskin darajada yuqori o‘rinlarni zabt etadi. Mishel Nacci o‘zining “studi di storia e critica delle idee” asarida shunday jumalarni keltirgan. "che cosa e' il carattere della nazione? Come gli essere umani hanno un carattere, cosi le nazione possono essere dodate di un carattere. Femminile o maschile, alacre o indolente, costante o volubile.ogni nazione puo` essere identificata grazie al suo carettere."¹³ Ya‘ni milliy xarakter nima va u qanday ta‘riflanadi? Har bir insonlarning fe‘l atvori bo‘lganidek, xalqlarda ham shu tarzda xarakterloar bo‘ladi. Har bir insonga, har bir oilaga mos xarakter bo‘lgani kabi, har bir xalqning hamo‘ziga xos xakteri mavjuddir. Ya‘ni u turlicha bo‘lib, madaniyat, urf odatlar asnosida paydo bo‘lgan. U insonlarning yashash joylari, sharoitlari va muloqot tarzidan kelib chiqib turli davlatlarniki turlichadir. Xarakter millatni tashkil etuvchi unsurlarning ifodasidir. Ularning barchasi xarakterda ifodalanadigan, namoyon bo‘ldigan bir xil xakterga ega. Shunday qilib, bir personaj xalqni butun bir millatni tasvirlaydi. Ya‘ni insonlar nazdida barcha xalq vakillari shu tarzda namoyon bo‘ladilar. Shahar qishloq, rivojlangan hududlar va qoloq hududlar o‘rtasidagi milliy xarakter qandaydir pozitsiyada farqlanishi mumkin. Milliy xarakter ham bu muhim jihat bo‘lib, bu xalqning yaxshi yo yomon, tartibli yoki tartibsiz va shu kabi turli fazilatlarini namoyon etadi. Bu muloqot jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ammo, xarakter bu oddiygina aql idrokning bir qismigina emas, balki uzoq tarix o‘tmishimizga ham borib taqaladi. Chunki milliylik yillarni ortda qoldirib, hozirgacha yetib kelmoqda.

Misol qilib milliy xakterni o‘zbek muloqoti misolida ko‘radigan bo‘lsak. Bu bir necha hollatlarda namoyon bo‘ladi.

- “Assalomu aleykum” so‘zini kattalar va kichiklarga nisbattan ishlatilishi.
- Yoshi katta shaxslar bilan muloqot qilganda ko‘ziga tik boqmaslik.
- Bizdan xato o‘tgan paytda, boshini yerga qaratib, aybdorlik hissini his qilish.
- Kattalarga nisbattan muloqot jarayonida hurmatning buyukligi.

¹³Michiela Nacci - Il carattere della nazione. Perugia. 2018



- Muloqot jarayonida o‘zimizdan katta bo‘lgan shaxslarni fikrini bo‘lmaslik.

- Kichiklarda muloqot jarayonida izzatda bo‘lish, fikrlarini tinglash
- Salomlashganda doimo samimiy bo‘lish.
- Muloqotda fikrlarni tugashini kutish

Ushbu yuqoridagi holatlar bizning milliy xarakterimiz bilan bevosita bog‘liqdir. Milliy xarakterimizdan kelib chiqqan holda muloqotga kirishamiz. Etibor bergan bo‘lsak, muloqotda bizda samimiylik asosiy o‘rinni egallaydi. Kulgu muloqot jarayonida isonlarga hamroh bo‘ladi. Shu bilan birgalikda muloqot jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, insonlarning bir-biriga nisbattan hurmati ham yuqori darajada, ya‘ni kattalarning gapi hech qachon bo‘linmaydi, agarda u noto‘g‘ri bo‘lsa ham. Chunki bu milliy xarakterga borib taqaladi. Bizning millatda kattalarga nisbattan hurmat juda ham ezozlanadi. Ya‘ni xalqimiz orasida shunday naql bor. Kattalar hurmatda, kichikl izzatda. Demak ikki tomonlama hurmatga ham osolanadi. Milliylik bizda ruhi kuchli bo‘lganligi bois, ushbu holat bizning muloqot jarayonimizda ham namoyon bo‘ladi.

Masalan, ushbu dialogni kuzataylik

- Assalomu aleykum, yaxshi dam oldingizmi?
- Valeykum salom. Raxmat, juda yaxshi. O‘zingchi.
- Yaxshi bobojon. Men maktabga ketyapman.
- Mayli, bolam yaxshi bor. Yo‘lda ehtiyot bo‘l.
- Xo‘p bo‘ladi. Yaxshi o‘tiring bobojon.

Ushbu yuqoridagi muloqotda, bobo va nabira suhbatini keltirilgan bo‘lib, ularning muloqotda o‘zaro milliylikni ruhlantirganini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni boboga nisbattan hurmat yaqqol ko‘rinadi va kichikning har bir aytgan gapi etibor darajasida. Ushbu holatni biz o‘zimiz nazdimizda kuzatdik, endi esa italiya xalqi orqali ko‘rib o‘tamiz. Ulardagi milliylikni muloqot jarayonida namoyon bo‘lishi qay yo‘sunda.

Italiyaliklar ham juda mehmondo‘st va bag‘ri keng shaxslar sanaladi va shu bilan birgalikda ularda muloqotda ham bun holatlar, milliy xarakter namoyon bo‘ladi.

Milliy xarakter – ma‘lum bir milliy jamoa uchun atrofdagi dunyoni hissiy idrok etishning eng barqaror xususiyatlari va unga bo‘lgan munosabat shakllari yig‘indisidir. Tuyg‘ular, his tuyg‘ular, kayfiyatlarda ifodalangan milliy xarakter milliy temperamentda namoyon bo‘lib, yaqqol muloqotda ham ko‘zga tashlanadi.

Milliy xarakter tushunchasi nazariy va tahliliy emas, balki baholovchi va tavsiflovchidir. U dastlab sayohatchilar tomonidan, keyin esa geograflar va



etnograflar tomonidan xalqlarning xulq atvori va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash uchun ishlatiladi. Nima uchun sayohatchi va geograflar. Chunki ular xalqning milliyligini o'z ko'zlari orqali kuzatadilar. O'zlari barcha narsaga amin bo'ladilar. Turmush tarzi va muloqoti jarayonida barcha narsalar milliy xarakter namoyon bo'ladi.

Hozirda milliy xarakterni o'rganishda biron bir yaxlit yo'nalishni aniqlab bo'lmaydi. Bu milliy xarakter haqida turli olimlarda turlicha qarashlar bor va kundan kunga rivojlanib, yangidan- yangi fikrlar chiqmoqda. Hozirda fikrlar umulashib quyidagi xulosalar keltirildi.

- Milliy xarakter deganda ma'lum bir millatning barcha a'zolariga va faqat ularga xos bo'lgan ma'lum psixologik xususiyatlarning namoyon bo'lishi tushuniladi. Bu keng tarqalgan ammo fanda kam uchraydigan milliy xarakter tushunchasidir.

- Milliy xarakter modal shaxs, ya'ni ma'lum bir turdagi shaxslarning millatning katta a'zolari o'rtasida namoyon bo'lishning nisbiy chastotasi sifatida belgilanadi.

- Milliy xarakter shaxsning asosiy tuzulishi ya'ni ma'lum bir xalq madaniyatida hukmronlik qiluvchi shaxsni tushunishdir.

- Milliy xarakter deganda ma'lum bir millatning muhim qismiga tegishli bo'lgan muloqot, qadryatlar, etiqodlar tizimi ham tushuniladi.

- Milliy xarakterni madaniyatning muayyan, alohida ma'noda ko'rib chiqiladigan psixologik jihatlarni tahlil qilish natijasida belgilash mumkin.

- Milliy xarakter madaniy mahsulotlarida, yani adabiyot, falsafa, san'atda ifodalangan aql zakovat sifatida qaraladi.

Endi milliy xarakter muloqotning tarkibiy qismi sifatida qanday namoyon bo'ladi. Buni yuqoridagi turlarga bo'lgan holda misollar bilan etirof etsak bo'ladi. Millatning o'ziga xos barcha xususiyatlari, ya'ni bu borada italyan xalq vakillarini modani sevuvchi, moda bilan hamnafas va did bilan kiyinuvchi shaxlar sarasiga kiritadigan bo'lsak. Ushbu kiyinishdagi etika va estetikaning o'rne muloqotda beqiyosdir. Muloqot jarayoning muhim qismlaridan etirof etiladigan jihatlardan biri bu tashqi ko'rinishdir. Ushbu holat muloqotda insonlar etiborini tortadi.

Milliy xarakterning muloqot, qadryatlarda namoyon bo'lishi deb keyingi bobda tavsiflanyapti. Ya'ni italyan xalqi vakillari muloqot jarayonida samimiylilik, xushchaqchqlik va verbal muloqotni afzal ko'radilar va bu ularning muloqot matnida yaqqol ko'zga tashlanadi. Qadryatlar, masalan kattalarga nisbattan hurmatning mavjudligi, oilaning ikki jins vakillari orasida nechog'lik muhimligi va kattalar bilan muloqotda bo'lganda "lei" ya'ni siz formasining qo'llanilishi bu milliy xarakterni namunasidir.



Xushmumomulalikning muloqotdagi ko'rinishi bu milliy qadriyatlardan dalolatdir. Ya'ni italiya xalqi orasida oltinga teng bo'lgan ko'p tarqalgan so'zlar. Bular:

- *Buongiorno – Xayrli kun*
- *Buonasera – Xayrli kech*
- *Buonagiornata – Xayrli kun*
- *Prego – Marhamat*
- *Arviderla – Ko'rishguncha*
- *Grazie – Raxmat*
- *Mi scusi – Kechirasan*
- *Mi scusa – Kechirasiz*
- *Benissima – Juda chiroyli*
- *Ottimo – Ajoyib*
- *Signore – Janob*
- *Signora – Xonim*

Ushbu yuqorida ta'kidlab o'tilgan so'zlar qatori italyan milliy xarakterining namunasidir. Ya'ni ularning nechog'lik samimiyligi, mehmondo'stligi, so'zlovchiga nisbattan hurmat va izzati beqiyosligini aks ettiradi. Bular oltinga teng so'zlar sanaladi. Chunki muloqotdagi asosiy energiya beruvchi, ishonchni kuchaytiruvchi, hurmatni oshiruvchi so'zlar manbaidir.

Milliylik ruhi muloqotdagi eng ko'zga tashlanuvchi xodisa sifatida qaraladi. Sayohatga chiqqan sayyohlar asosan insonlarni kuzatishadi. Ushbu xalq haqidagi ta'surotlarni insonlarning o'sha yerdagi xarakteri va muloqoti nazdida xulosalanadi. Agarda o'sha sayohat davomida bir kishi bilan muloqotda bo'lsa-yu va bu muloqot qoniqarsiz o'tgan bo'lsa, ushbu xalq vakillari haqida umumiy xulosaga kelinadi. Milliylik nechog'lik muhimligini ushbu holatda ko'rsak bo'ladi.

Yurida ta'kidlab o'tilganidek, milliylik kitob va asarlarda keltirilmaydi. Uni yozuvchilar o'z-o'zlaridan yozishmaydi. Balki u sayohatchilar va geograflar tomonidan rivojlanadi.

Milliy xarakter qachon namoyon bo'ladi. Bir necha xalq vakillari yig'ilganda amalga oshirilayotgan suhbat, verbal va noverbal aloqalar jarayonida milliy xarakter muloqotda namoton bo'ladi.

- *Buongiorno Signora.*
- *Buongiorno Signore,*
- *Come sta?*
- *Benissimo. Grazie. E lei?*
- *Ottimo. Dove e' la sua figlia?*



- *Lei e' andata a scuola.*
- *Voleva chiedere una cosa.*
- *Se lei vuole pou` chiedere da me. Se posso, autero`*
- *Grazie mile. Volevo chiedere del ricetta di una pizza napoletana*
- *Ah, si, io so. Possso aiuterla.*
- *Grazie. Sono molto contenta.*

Ushbu yuqoridagi muloqotda milliylikruhi aks etgan:

- *Signore* hurmat ma'nosida italyanlar ta'nish va notanish shaxslar uchun qo'llashadi.

- *Signora* bu xonim ma'nosida, ayollarga hurmatni ifoda etish uchun qo'llaniladi. Bizda xonim sifatida emas, opa, xola sifatida begonalarga va yaqinlarga murojat etiladi.

- *Benissimo, ottimo* – bu ortirma darajadagi sifatlar hisoblanadi. Ortirma daraja ularning muloqot tarzida ko'p qo'llaniladi. Ajoyib, juda ham zo'r. Ular doimo hayotdan mamnun shaxslar sarasiga kiradi.

- *Grazie* – bu italyanlar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan so'zlar qatorini boshlab beruvchi milliy xarakterni o'zida mujassamlashtiruvchi so'z. Ya'ni raxmat. Italiyan xaqli vakillari har bir oddiygina holat uchun ham raxmat so'zini ishlatishga shay xalq vakillaridir.

- *Posso, volevo* maylimi, xoxlardimki deya tarjimada namoyon bo'luvchi so'zlar yig'indisi sanaladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Garold Lassuella. - Yazik vlasti. Ekaterinburg. 2006y.
2. Watzlawick, J. H. Beavin, P. Watzlawick, J. H. Beavin, D. D. Jackson, .Pragmatica della comunicazione umana, Astrolabio, Roma 1971.
3. Michiela Nacci - Il carattere della nazione. Perugia. 2018
4. T. Shibutani - Ijtimoiy psixologiya. 2022.
5. И.А.Стернин. Коммуникативное поведение Вып. 17 Вежливость как коммуникативная категория Научное издание. Воронеж 2003.
6. Нистратова Светлана Леонидовна. Национально-культурные особенности коммуникативного поведения и речевого этикета русских и итальянцев.
7. А.Г.Исмагилова. Стиль педагогического общения воспитателя детского сада. Вопросы психологии. 2000.

